

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



**“Tijorat banklarda moliyaviy hisobotning
xalqaro standartlari” fanidan (6-semestr
uchun) amaliy mashg‘ulotlar ishlanmasi**

Bilim sohasi:	200000	- Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta’lim sohasi:	230000	- Iqtisod
Ta’lim yo‘nalishi:	5230700	- Bank ishi va audit

Qarshi-2023 y

Fanning amaliy mashg'ulot bo'yicha ishlanmasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti 2022 yil 29 avgustdagi №-310 son bilan ro'yxatga olingan fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Ergasheva. N. R. *“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi stajyor o'qituvchisi*

Taqrizchilar:

Qurbonov A.B.

QarMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.

Butunov Sh.B.

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi katta o'qituvchisi

Fanning ma'ruzalar matni Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasining 2022 yil “ 7 ” noyabrdagi 6 -sonli yig'ilishida hamda “Iqtisodiyot” fakulteti Uslubiy Komissiyasining va 2022 yil “ 19” noyabrdagi 4 -sonli yig'ilishida muhokama qilib tasdiqlangan.

“Iqtisodiyot” fakulteti

A.Qurbonov

Uslubiy komissiya raisi:

Kafedra mudiri

A.Alikulov

2 - Mavzu. “Banklarda moliyaviy aktivlarni MHXSlari asosida hisobga olish” mavzusi asosida
BA-165-20, 166-20 guruh talabalariga
“TBMHXS” fanidan amaliy mashg’ulot uchun topshiriqlar

Topshiriq №1: Quyidagi so’zlarga ta’rif bering?

Samarali foiz usuli.....
Samarali foiz stavkasi.....
Samarali foiz stavkasini hisoblashda.....

Topshiriq №2: Savollarga javob bering?

- 1.Moliyaviy aktivlarning mohiyati, ularning tasniflanishi yozing?
- 2.Moliyaviy vosita (instrument)lar va ularning banklarda shakllanishini yozib izohlang?
- 3.Banklarda moliyaviy aktiv (majburiyat)ning pul moddalari yozing?
- 4.Moliyaviy aktivning balans qiymati, amortizatsiyalanadigan qiymati, boshlang‘ich qiymatini yozing?

Topshiriq №3: Test savollariga javob bering?

1. Tijorat banklarida qo‘llaniladigan milliy standart bilan MHXSlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik umumiy holda nechtni tashkil qiladi?
A) 1 B) 2 S) 3 D) 4 E) 5
2. TBMHXS bo‘yicha moliyaviy hisobotni soliq qonunchiligi bilan bog‘liqligi qanday?
A) kuchli B) kuchsiz S) o‘rtacha D) bog‘liqlik yo‘q E) to‘g‘ri javob yo‘q
3. Bank-moliya tizimi buxgalteriya hisobi va hisobotini to‘liq MHXSga moslashtirish ishlari qachondan boshlab olib borilmoqda?
A) 2011 yildan boshlab
B) 2012 yildan boshlab
S) 2013 yildan boshlab
D) 2014 yildan boshlab
E) 2015 yildan boshlab
5. Bank-moliya tizimi buxgalteriya hisobi va hisobotini to‘liq MHXSga moslashtirish ishlari qaysi me‘yoriy hujjatga asosan olib borilmoqda? To‘g‘ri javobni yozing.
6. Bank-moliya tizimida kredit operatsiyalari hisobi bo‘yicha buxgalteriya hisobi va hisobotini MHXSga moslashtirishda qaysi yo‘nalishda farq mavjud? To‘g‘ri javobni yozing.
7. O‘zbekiston tijorat banklarida moliyaviy hisobot MHXS asosida tuzilyaptimi?

A) Ha

B) Yo‘q

8. Bankda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishni kim amalga oshiradi?

A) Bank filiali bosh hisobchisi amalga oshiradi.

B) Bank filiali rahbari amalga oshiradi.

S) Bank filiali ta‘sischilari amalga oshiradi.

D) To‘g‘ri javob yo‘q.

9. Bankda buxgalteriya apparatiga kim rahbarlik qiladi?

A) Bankning bosh buxgalteri rahbarlik qiladi.

B) Bank boshqaruvchisi rahbarlik qiladi?

S) Bank ta‘sischisi rahbarlik qiladi?

D) To‘g‘ri javob yo‘q.

10. Bankda buxgalteriya apparatiga rahbarlik qaysi huquqiy asos bo‘yicha olib boriladi?

A) Bank tizimining bosh buxgalterlari to‘g‘risidagi namunaviy nizom asosida ish olib boriladi.

B) Bank tizimining boshqaruvchisi to‘g‘risidagi namunaviy nizom asosida ish olib boriladi.

S) Bank tizimining ta‘sischilari to‘g‘risidagi namunaviy nizom asosida ish olib boriladi.

D) To‘g‘ri javob yo‘q.

11. Banklarda buxgalteriya ishlarini yuritish uchun tuziladi.

A) buxgalteriya apparati

B) buxgalteriya balansi

S) buxgalteriya hisoboti

D) buxgalteriya kitobi

**2- Mavzu. “Banklarda kredit, lizing va faktoring operatsiyalari hisobi”
mavzusi asosida
BA-165-20, 166-20 guruh talabalariga
“TBMHXS” fanidan amaliy mashg’ulot uchun topshiriqlar**

Topshiriq №1: Quyidagi so’zlarga ta’rif bering?

Topshiriq №2: Savollarga javob bering?

1. Buxgalteriya balansi tahlilining mazmuni va vazifalari nimalardan iborat?
2. Buxgalteriya balansi va uning tarkibiy tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
3. Nima uchun balans moddalari va uning boshqa moliyaviy hisobotlar ma’lumotlariga mos bo’lishi shart?
4. Buxgalteriya balansini tahlili qanday usullar yordamida amalga oshiriladi?
5. Nima uchun korxona moliyaviy holatining tahlili amalga oshiriladi?
6. Korxonalar moliyaviy salohiyatini aniqlashda qanday moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi?
7. Nima uchun buxgalteriya balansi tahlili korxonaning moliyaviy holatini aniqlash imkonini beradi?

**4- Mavzu. “Banklarda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi
(MXXC 16, 38)” mavzusi asosida
BA-165-20, 166-20 guruh talabalariga
“TBMHXS” fanidan amaliy mashg’ulot uchun topshiriqlar**

Topshiriq №1: Quyidagi so’zlarga ta’rif bering?

Amortizatsiya.....
Balans qiymati.....
Tannarx.....
Tajriba-konstruktorlik ishlab chiqish.....
Haqqoniy qiymat.....
Nomoddiy aktiv.....
Monetar aktivlar.....
Tadqiqot.....

Topshiriq №2: Savollarga javob bering?

- 1.Nomoddiy aktivlar deb nimaga aytiladi?
- 2.Nomodsiy aktivlarning qanday turlari mavjud?
- 3.Nomoddiy aktivlar qanday baholarda baholanadi?
- 4.Nomoddiy aktivlar harakati bilan bog’liq muomalalar buxgalteriya hisobida qanday aks ettiriladi?

Topshiriq №3: Test savollariga javob bering?

1.Tijorat banklari qaysi MHXS dan yillik moliyaviy hisobot tuzish va tayyorlashlarda foydalanishga majbur?

- A) MHXS-39
- B) MHXS-9
- C) MHXS-32
- D) MHXS-7

2.Moliyaviy aktivlar necha toifaga bo’linadi?

- A) 3
- B) 5
- C) 1
- D) 6

3.MHXS da nomoddiy aktivlarga tegishli bo’lgan standart qaysi sonda berilgan?

- A) 16
- B) 38
- C) 40
- D) 13

4.Nomoddiy aktivlar ko’rsatilgan qatorni ko’rsating

- A) gudvil, veksellar, electron pullar
- B) gudvil, litsenziya, kompyuter dasturlari
- C) Ijara shartnomasi, ishchi hayvonlar
- D) Patent, qimmatli qog’ozlar

**8- Mavzu. “Tijorat banklarida daromad va xarajatlarni hisobi
(MXXC 12,18,21)” mavzusi asosida
BA-165-20, 166-20 guruh talabalariga
“TBMHXS” fanidan amaliy mashg’ulot uchun topshiriqlar**

Topshiriq №1: Quyidagi so’zlarga ta’rif bering?

Daromad tushunchasi.....
Foizlar.....
Royalti.....
Dividendlar.....
Haqqoniy qiymat.....
Operatsion daromad.....
Foizli daromad.....
Foizsiz daromad.....

Topshiriq №2: Savollarga javob bering?

1. Banklarda daromadlar hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini yozing?
2. Bank xarajatlari va ularning turlarini yozing?
3. Bank foydasi va uni hisobga olish tartibini yozing?

4. Topshiriq №3: Test savollariga javob bering?

**9- Mavzu. “Banklarda pul mablagʻlari harakati toʻgʻrisidagi hisobot
(MHXS 7)” mavzusi asosida
BA-165-20, 166-20 guruh talabalariga
“TBMHXS” fanidan amaliy mashgʻulot uchun topshiriqlar**

Topshiriq №1: Quyidagi soʻzlarga taʼrif bering?

Pul mablagʻlari _____

Pul mablagʻlarining ekvivalentlari _____

Pul oqimlari _____

Operatsion faoliyat _____

Investitsion faoliyat _____

Moliyaviy faoliyat _____

Topshiriq №2-topshiriq.

Berilgan matnni oʻzlashtiring, 5 daqiqalik “ESSE” yozing va oʻqib bering.

Pul oqimlari toʻgʻrisidagi hisobot, boshqa moliyaviy hisobotlar bilan birgalikda foydalanilganda, foydalanuvchilarga tadbirkorlik subʼektining sof aktivlaridagi oʻzgarishlarni, ularning moliyaviy strukturasi (likvidligi va toʻlov qobiliyati)ni va oʻzgarayotgan imkoniyatlar va sharoitlarga moslashish maqsadida oʻzining pul oqimlari summasi va muddatlariga taʼsir koʻrsata olish qobiliyatini baholash uchun maʼlumot bilan taʼminlaydi. Pul oqimlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar tadbirkorlik subʼektining pul mablagʻlari va ularning ekvivalentlarini keltirib chiqarish imkoniyatlarini baholashda foydalidir, hamda foydalanuvchilarga har xil tadbirkorlik subʼektlariga tegishli kelgusi pul oqimlarining keltirilgan (diskontlangan) qiymatini baholash va solishtirish modellarini ishlab chiqish imkonini beradi. U, shuningdek, turli xil tadbirkorlik subʼektlarining operatsion faoliyati koʻrsatkichlari haqidagi hisobotlarining qiyoslanuvchanligini oshiradi, chunki u bir xil operatsiya va hodisalarning turlicha hisobga olinishi oqibatlarini bartaraf qiladi.

Oldingi davrlardagi pul oqimlari toʻgʻrisidagi axborotdan koʻpincha kelgusi pul oqimlarining summasi, muddati va aniqligining koʻrsatkichi sifatida foydalaniladi. U, shuningdek, kelgusi pul oqimlari boʻyicha oldingi baholarning toʻgʻriligini tekshirishda, hamda foydalilik va sof pul oqimlari orasidagi bogʻliqlikni va oʻzgaruvchan narxlarning taʼsirini oʻrganishda foydalidir.

